sobga olish hamda o‘qitish jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etish uchun qo‘llanilishi kerak. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchining raqamli kompetensiyasi pedagogik tafakkur, metodik tanlov va baholash strategiyalari bilan uyg‘unlashgan holdagina mazmunli kasbiy sifatga aylanadi.

Mazkur hujjatda, shuningdek, raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida o‘qituvchining pedagogik mas’uliyati kuchayishi qayd etiladi. O‘qituvchi texnologik vositalarni tanlash va qo‘llashda ularning o‘quvchi shaxsiga ta’sirini, bilish jarayoniga kiritadigan o‘zgarishlarini hamda tarbiyaviy jihatlarini oldindan hisobga olishi lozim. Demak, raqamli texnologiyalarni qo‘llash pedagogik qarorlarning avtomatiklashuviga emas, balki ularning ongli, asosli va maqsadga yo‘naltirilgan holda qabul qilinishiga olib kelishi kerak.

Natijalar va muhokama. Shu tariqa, ICT Competency Framework for Teachers (Version 3) hujjatida ilgari surilgan yondashuv o‘qituvchining raqamli kompetensiyalarini pedagogik madaniyatning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi. Raqamli texnologiyalar pedagogik maqsadlarga xizmat qilgan taqdirdagina ular ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantirish va ta’lim jarayonini insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishga imkon beradi. Bu esa pedagogik madaniyatning zamonaviy talqinida texnologiya va pedagogika o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim metodologik talab ekanligini ko‘rsatadi.

Shu sababli pedagogik madaniyatning raqamli talqinida baholash jarayoni faqat texnik natijani qayd etuvchi yoki avtomatik hisob-kitobga asoslangan amal sifatida emas, balki ta’lim oluvchining rivojlanish dinamikasini qo‘llab-quvvatlovchi hamda uni o‘quv faoliyatiga ichki jihatdan jalb etuvchi pedagogik jarayon sifatida qaraladi. Raqamli muhitda avtomatlashtirilgan baholash vositalari o‘quvchining xatolari, yutuqlari va faollik darajasini tezkor aniqlash imkonini bersa-da, ushbu ma’lumotlarning tarbiyaviy va motivatsion qiymati ularning qanday pedagogik maqsadda va qaysi shaklda qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa. Pedagogik madaniyat nuqtayi nazaridan baholash o‘quvchini saralash yoki nazorat qilish vositasi emas, balki uning bilish imkoniyatlarini ochish, o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda kelgusi o‘quv harakatlarini ongli ravishda rejalashtirishga yo‘naltiruvchi mexanizm hisoblanadi. Shu ma’noda, raqamli baholash natijalari o‘qituvchi tomonidan izohlanmasa, pedagogik muloqot bilan boyitilmasa va individual rivojlanish nuqtayi nazaridan talqin etilmasa, ular faqat texnik axborot darajasida qolib ketishi mumkin. Demak, raqamli ta’lim muhitida baholashning rivojlantiruvchi xususiyati bevosita pedagogik madaniyat darajasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Luckin et al., 2016; Holmes et al., 2019.

(2). Williamson, 2017; Mandinach & Gummer, 2016.

(3). https://www.researchgate.net/publication/395196621

(4). Luckin, Rose, Holmes, Wayne, Griffiths, Mark, & Forcier, Laurie B. (2016). *Intelligence Unleashed: An Argument for AI in Education*. London: Pearson.

(5). UNESCO. *ICT Competency Framework for Teachers (Version 3)*. Paris: UNESCO, 2018, pp. 6–8.

(6). UNESCO. *AI Competency Framework for Teachers*. UNESCO, 2024.

Ergasheva Malohat Tursunovna (A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti dotsenti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc)

PISA O‘QISH SAVODXONLIGIDA MATNLAR BILAN ISHLASHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘qish savodxonligining tarkibiy komponentlari–matnni tushunish, talqin qilish, tahlil etish, baholash va refleksiya qilishning o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek o‘qish savodxonligini rivojlantirishning mazmun-mohiyati, o‘quvchilardan faqatgina matnni o‘qish emas, balki turli formatdagi matnlar bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *chuqur tushunish, transfer kompetensiyasi, tanqidiy va kreativ fikrlash, raqamli savodxonlik, matn ustida ishlash, ravon o‘qish, ma’lumotlarni topish, tushunish.*

ОСОБЕННОСТИ РАБОТЫ С ТЕКСТАМИ В РАМКАХ PISA-ТЕСТА ПО ЧТЕНИЮ И ГРАМОТНОСТИ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются структурные компоненты читательской грамотности – специфические особенности понимания, интерпретации, анализа, оценки и осмысления текста, а также сущность развития читательской грамотности и развитие у учащихся навыков не только чтения текста, но и работы с текстами в различных форматах.*

***Ключевые слова**: глубокое понимание, навыки переноса знаний, критическое и творческое мышление, цифровая грамотность, работа с текстом, беглое чтение, поиск информации, понимание.*

SPECIFIC FEATURES OF WORKING WITH TEXTS IN THE PISA READING LITERACY

***Annotation.** This article discusses the structural components of reading literacy - the specific features of understanding, interpreting, analyzing, evaluating, and reflecting on the text, as well as the essence of developing reading literacy, and the development of students' skills not only to read text, but also to work with texts in various formats.*

***Keywords:** Deep understanding, transfer competence, critical and creative thinking, digital literacy, working with text, reading fluently, finding information, understanding.*

Kirish. O‘zbekistonda, xususan, ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, PIRLS va PISA xalqaro baholash dasturlarida muntazam ishtirok etish jarayoni boshlang‘ich va yuqori sinf ta’lim sifatini oshirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Zero, xalqaro baholash mezonlari ta’lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish, o‘quvchilarning savodxonlik darajasini oshirish va ularning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorgarligini kuchaytirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi, Shu o‘rinda ta’kidlash o‘rinliki, 2029-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan PISA tadqiqotida o‘qish savodxonligi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan [1].

Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qish savodxonligi alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qish savodxonligi bu matnni tushunish, undan ma’lumot ajratib olish, tahlil qilish, talqin etish, baholash va o‘z pozitsiyasini asoslash qobiliyatidir.

OECD tomonidan amalga oshiriladigan PISA xalqaro baholash dasturida o‘qish savodxonligi o‘quvchining yozma matnlarni tushunishi, ulardan foydalanishi, ular ustida fikr yuritishi va o‘z maqsadlariga erishish hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun ularga munosabat bildira olishi sifatida talqin etiladi[3]. Ushbu ta’rifdan ko‘rinib turibdiki, o‘qish savodxonligi shaxsning ijtimoiy faolligi va hayotiy muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, IEA tomonidan tashkil etiladigan PIRLS tadqiqotida o‘qish savodxonligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining turli matnlarni tushunishi hamda o‘rganish va zavqlanish maqsadida ulardan foydalana olish qobiliyati sifatida izohlanadi [4]. Demak, o‘qish savodxonligi maktab ta’limining ilk bosqichlaridan boshlab shakllantirilishi zarur bo‘lgan uzluksiz jarayondir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Louise Rosenblattning tranzaksion nazariyasiga ko‘ra, o‘qish bu matn va o‘quvchi o‘rtasidagi faol muloqot jarayonidir [6]. U o‘qishning ikki turini ajratadi: estetik (matndan zavqlanish) va efferent (axborot olishga qaratilgan) o‘qish. Bu yondashuv zamonaviy ta’limda o‘quvchining shaxsiy tajribasi va dunyoqarashini matnni tushunish jarayoniga jalb etish zarurligini asoslaydi.

Kognitiv psixologiya yo‘nalishida faoliyat yuritgan Lev Vigotsky o‘qish va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikka e’tibor qaratib, til va tafakkur rivoji ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi [7]. Uning “yaqin rivojlanish zonasi” haqidagi g‘oyasi o‘qish savodxonligini shakllantirishda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikning muhimligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Paulo Freire o‘qish jarayonini tanqidiy ongni shakllantirish vositasi sifatida talqin etgan. Unga ko‘ra, savodxonlik bu shaxsning atrof-muhitni anglash va ijtimoiy adolat uchun faol pozitsiya egallashiga xizmat qiluvchi jarayondir. Freire ta’limni dialog va tanqidiy fikrlash asosida tashkil etishni taklif etadi.

PISA dasturining asosiy tashabbuskorlaridan va ta’lim siyosati bo‘yicha yetakchi ekspertlardan biri Andreas Schleicher o‘z asarlarida zamonaviy ta’limning markazida bilim hajmi emas, balki bilimni qo‘llay olish qobiliyati turishi lozimligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, XXI asrda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun o‘quvchilar “nimalarni bilishi”dan ko‘ra, “bilganlarini qanday qo‘llay olishi” muhimroqdir [8]. Schleicher o‘qish savodxonligini global raqobat sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida baholaydi. Unga ko‘ra, yuqori darajadagi o‘qish savodxonligiga ega o‘quvchilar yangi bilimlarni tezroq o‘zlashtiradi, mustaqil fikr yurita oladi va murakkab muammolarga innovatsion yechim topishga qodir bo‘ladi.

Metodologiya. Zamonaviy ilmiy manbalarda o‘qish savodxonligi bir nechta o‘zaro bog‘liq komponentlardan iborat deb qaraladi. Birinchidan, bu axborotni topish va ajratib olish ko‘nikmasidir. O‘quvchi matndan aniq fakt, g‘oya yoki dalilni topa olishi kerak. Ikkinchidan, matnni tushunish va talqin qilish muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichda o‘quvchi matn mazmunini umumlashtiradi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlaydi va muallif pozitsiyasini anglaydi. Uchinchidan, tahlil va baholash bosqichi bo‘lib, bunda o‘quvchi matndagi fikrlarning asoslanganlik darajasini baholaydi, ularni boshqa manbalar bilan solishtiradi va mustaqil xulosa chiqaradi. Shuningdek, zamonaviy yondashuv o‘qish savodxonligini rivojlantirishda metakognitiv ko‘nikmalarga ham alohida e’tibor qaratadi. Bu o‘quvchining o‘qish jarayonini rejalashtira olishi, o‘z tushunishini nazorat qilishi va kerak bo‘lsa, strategiyasini o‘zgartira olish qobiliyatidir.

O‘qish savodxonligi shaxsning intellektual rivojlanishi, mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi. Matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchi nafaqat ma’lumot oladi, balki o‘z dunyoqarashini kengaytiradi, muammolarga turli nuqtai nazardan qarashni o‘rganadi. Jamiyat miqyosida esa o‘qish savodxonligi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Savodxon aholi yangi texnologiyalarni tezroq o‘zlashtiradi, innovatsion g‘oyalarni ilgari suradi va mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘ladi. Shu bois xalqaro tadqiqotlar natijalari mamlakatlarning ta’lim siyosatini takomillashtirishda muhim mezon sifatida xizmat qiladi.

Tahlil va natija. Bugungi kunga qadar o‘qish savodxonligi masalasi ko‘plab pedagog va psixolog olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Masalan, mashhur amerikalik pedagog olim Jeanne Chall o‘qish jarayonini bosqichma-bosqich rivojlanadigan ko‘nikma sifatida ko‘rib, dastlabki bosqichda texnik o‘qish (dekodlash), keyingi bosqichlarda esa mazmuniy tushunish va tahlil qilish ustuvor ahamiyat kasb etishini ta’kidlaydi [5]. Uning fikricha, yuqori sinflarda o‘qish savodxonligi bilim olish vositasiga aylanadi.

Ravon o‘qish inson diqqat-e’tiborini va xotiradagi ma’lumotlarni bo‘shatib, bu yuqori saviyada o‘qib -tushunish jarayonlariga yo‘l ochadi. Aksincha, o‘qish rovonligining sayozligi tushunilishi kerak bo‘lgan resurslarni (ma’lumotlarni) bosma matnni qayta ishlash uchun zarur bo‘lgan quyi saviyadagi jarayonlarga o‘zgartirib, o‘qib-tushunish ko‘nikmasini susayishiga olib keladi. Ravonlik va tushunish orasidagi mazkur kuchli bog‘liqlikka e’tibor qaratish orqali AQSHning Milliy o‘qish savodxonligi qo‘mitasi o‘quvchilarning tushunish ko‘nikmalarini yaxshilashda o‘qish rovonligini rivojlantirishni tavsiya etadi.

Ma’lumotlarni topish. Qobiliyatli o‘quvchilar matn ustida mulohaza yuritish va unda ilgari surilgan asosiy mazmunni tushunish uchun uni diqqat bilan o‘qiydilar. Shunga qaramasdan, o‘quvchilar odatda matnlarni o‘qishda o‘zlari uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarni qidirib topishga harakat qiladilar va matnning boshqa qismiga deyarli e’tibor qaratmaydilar [10]. Bundan tashqari, ma’lumotlarni qidirib topish veb sahifalar va boshqa murakkab raqamli ma’lumotlardan foydalanishda o‘qish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. PISA qamrov doirasida o‘quvchilar matnlar ichida va matnlararo ma’lumotlarni topish uchun kerakli bo‘lgan ikki jarayonga e’tibor qaratiladi.

Matn ichidan ma’lumotni qidirib topish va ajratib olish. Jadvallardan, matn bo‘limlaridan yoki butun bir kitoblardan kerakli ma’lumotlarni qidirib topishning o‘zi alohida qobiliyatdir. Ma’lumotlarni qidirib topish o‘quvchining topshiriq shartlarini tushunganligini va matnning tashkiliy qismlari (masalan, sarlavhalar, paragraflar) va matnning muvofiqligini baholash qobiliyati haqida qandaydir ma’lumotga ega ekanini ko‘rsatadi. Ma’lumotlarni qidirib topish qobiliyati o‘quvchining kerakli ma’lumotlar haqida qandaydir xabardorligiga va matnning keraksiz qismini tezda ajrata olish qobiliyatiga bog‘liq.

Bundan tashqari, odatda, o‘quvchilar biror ma’lum ma’lumotni ajratib olish uchun qator paragraflarni tahlil qilishlari (elakdan o‘tkazishlari) kerak bo‘ladi. Bu esa matndagi ma’lumotlarni ajratib olish yoki e’tiborsiz qoldirishda insondan o‘qish tezligi boshqarish, chuqur tahlil etish va qobiliyatini talab etadi[11]. PISA tadqiqotlarida ma’lumotlarni topish va ajrata olish topshiriqlarida o‘quvchilardan bir necha so‘zlar, iboralar yoki raqamli qiymatlardan tashkil topgan asosiy ma’lumotni ajratib olish uchun matnni sinchiklab tahlil etishni talab etadi. Tahlil etilayotgan matnni tushunish uchun uni iboralar darajasida tushunish shart emas. Asosiy ma’lumot matndagi yoki savoldagi so‘ralayotgan so‘z yoki iboraga mazmunan yaqin yoki mos bo‘lgan boshqa so‘z va iborani topsih orqali aniqlanadi, binobarin, ayrim topshiriqlarda so‘z yoki ibora darajasida xulosa chiqarish talab etiladi.

Xulosa. Umumlashgan matnni hosil qilish butun-bir yaxlit matnning alohida gaplari darajasida ishlashni taqozo etadi. O‘quvchi sodda bog‘lovchi xulosalardan (anofora kabi) ancha murakkab bog‘lanishlargacha bo‘lgan (masalan, joy, vaqt, sabab yoki shart bog‘lanishli gaplar) turli xulosalarni hosil qiladi. Xulosalar matnning turli qismlari bir-biriga bog‘lashi mumkin yoki ular matnni savol bilan bog‘laydi. Nihoyat, ba’zi topshiriqlarda o‘quvchidan xulosa chiqarish ham talab etilib, unda o‘quvchi matn uchun yetakchi sarlavha yoki nom topish uchun berilgan matnning yashirin asosiy g‘oyasini aniqlashi kerak bo‘ladi. Agar o‘quvchilar bir necha matnlar bilan ishlashiga to‘g‘ri kelsa, matn oid xulosa chiqarish va umumlashtirish matnning turli qismlarida joylashgan ma’lumotlarga asoslangan bo‘lishi ham mumkin. Matnning turli qismlari yordamida ma’lumotni umumlashtirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yana bir o‘ziga xos muammo shundan iboratki, bu qismlar zid ma’noli yoki nomutanosib ma’lumotlardan iborat bo‘lishi mumkin. Unday hollarda, o‘quvchilar yuzaga kelgan ixtilofni aniqlab, bartaraf etish uchun baholash jarayonini amalga oshirishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ergasheva M. PIRLS va PISA kontekstida o‘qish savodxonligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti. “Maktab ta’limi’. Muammolar, izlanishlar, yechimlar. 2025, 5-son.

(2). Ergasheva M. Funksional savodxonlikning tarkibiy qismi sifatida o‘qish savodxonligini baholash orqali ta’limdagi muammolarni aniqlash. “Maktab va hayot”. OAK ilmiy-metodik jurnali, 6-son, Toshkent, 2022.
(3). Mullis I.S, Martin M.O (Eds.). (2019). PIRLS 2021 Assessment Frameworks.
(4). Chall J.S. (1983). Stages of reading development. McGraw-Hill.
(5). Rosenblatt L.M. (1978). The reader, the text, the poem: The transactional theory of the literary work. Southern Illinois University Press.
(6). Vigotsky L.S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
(7). Schleicher A. (2018). World class: How to build a 21st-century school system, stronger schools for stronger economies. OECD Publishing.
(8). Kuhn M.R., Stahl S.A. (2003). Fluency: A review of developmental and remedial practices. Journal of Educational Psychology, 95(1).

Urakova Nargiza Salomovna (Xalqaro Innovatsion universitet, falsafa fanlari nomzodi)

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari va amaliy ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Zamonaviy ta’lim paradigmasi kontekstida interfaol, loyiha va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining gumanitar fanlar metodologiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik innovatsiyalar tushunchasi, ularning ijtimoiy-gumanitar ta’limdagi xususiyatlari hamda talabalar intellektual faolligiga ta’siri masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Tadqiqot adabiyotlar tahlili va nazariy sintez metodlariga asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, interfaol ta’lim, loyiha metodi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy ta’lim paradigmasi, kompetensiyaviy yondashuv.*

Уракова Наргиза Саломовна (Международный инновационный университет, кандидат философских наук)

РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические основы и практическое значение применения инновационных педагогических технологий в процессе преподавания социально-гуманитарных дисциплин. В контексте современной образовательной парадигмы анализируется роль интерактивных, проектных и информационно-коммуникационных технологий в методологии гуманитарных наук. Особое внимание уделяется понятию педагогических инноваций, их специфике в социально-гуманитарном образовании и влиянию на интеллектуальную активность студентов.*

Ключевые слова: *инновационные педагогические технологии, социально-гуманитарные науки, интерактивное обучение, метод проектов, информационно-коммуникационные технологии, современная образовательная парадигма.*

Urakova Nargiza Salomovna (International Innovation University Candidate of Philosophy)

THE ROLE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES

Annotation. *This article examines the theoretical foundations and practical significance of applying innovative pedagogical technologies in the teaching of social and humanities disciplines. Within the context of the modern educational paradigm, the role of interactive, project-based, and information-communication technologies in the methodology of humanities education is analyzed. Special attention is given to the concept of pedagogical innovation, its characteristics within social-humanitarian education, and its impact on students’ intellectual engagement.*

Keywords: *innovative pedagogical technologies, social and humanities disciplines, interactive learning, project method, information and communication technologies, modern educational paradigm.*

Kirish. Zamonaviy jamiyatning jadal rivojlanishi, globallashuv jarayonlari va raqamli texnologiyalarning hayotning barcha sohalariga kirib kelishi ta’lim tizimiga yangicha talablar qo‘ymoqda. Xususan, ijtimoiy-gumanitar fanlar: tarix, falsafa, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot, huquq kabi fanlarni o‘qitish an’anaviy usullar asosida amalga oshirilganda zamonaviy talaba va o‘quvchilarning intellektual ehtiyojlarini to‘liq qondira olmaydi. Shu sababli butun dunyo ta’lim hamjamiyati pedagogik jarayonni innovatsion texnologiyalar asosida qayta qurish zaruriyatini tan olmoqda [1]. O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim sohasini isloh qilishga qaratilgan bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, ular o‘quv jarayonida innovatsion yondashuvlarni joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi [2]. Ijtimoiy-gumanitar fanlar